

## FRANSUZ TILIDAGI BURUN TOVUSHLI SO‘ZLARNI O‘ZBEK TILIGA TRANSLITERATSIYA QILISH MASALALARI

Nargiza Nuritdinova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
“Fransuz tili nazariy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozir amalda bo‘lgan o‘zbek lotin alifbosida rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar imlosida bir qator orfografik muammolar mavjud. Bu haqda ilmiy jamoatchilik tomonidan matbuot sahifalarida qator chiqishlar qilingan. Mazkur maqolada keyingi yillarda bu borada bildirilgan fikr-mulohazalarni o‘rganib chiqqan holda hamda bugungi lisoniy vaziyatdan kelib chiqib, fransuzcha so‘zlarni o‘zbek lotin alifbosida aks ettirish – transliteratsiya qilish bo‘yicha ayrim tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so‘zlar:** so‘z o‘zlashtirish, manba til, vosita til, imlo qoidalari, transliteratsiya, transkripsiya, fransuzcha toponim va antroponomalar, fransuzcha burun tovushlari, o‘zbek lotin alifbosi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori kun sayin oshib bormoqda: O‘zbekiston teng huquqli, suveren davlat sifatida dunyoning barcha davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni amalga oshiryapti. Ayniqsa, keyingi paytlarda ilm-fan, madaniyat va san‘at sohalarida keng miqyosdagi aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Natijada ijtimoiy hayotimizda tub o‘zgarishlar sodir bo‘lyapti: boshqa davlatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yilib, bevosa o‘zbek tilidan xorijiy tillarga yoki xorijiy tillardan o‘zbek tiliga tarjimalar amalga oshmoqda. Binobarin, yangi so‘zlar o‘zlashtirilmoqda, o‘zbekcha so‘zlar ham jahon arenalarida jaranglay boshladi: kurash, o‘zbek kurashi, halol, g‘irrom, chala, dakki, yonbosh va sh.k. so‘zlar bugungi kunda dunyoning barcha qit’alarida o‘tkaziladigan o‘zbek kurashi bo‘yicha musobaqalarda jaranglab turibdi.

Aslida, “Tabiat va jamiyatda hamma narsa bir-biri bilan uzviy bog‘langan, biri ikkinchisini taqozo etadi. Tabiatdagi biror o‘zgarish, albatta, jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Jamiyatdagi har bir o‘zgarish esa tilda o‘z aksini topadi. Shu sababli ham til doimo rivojlanib, takomillashib boradi. Bu holat tilning leksikasida yaqqol namoyon bo‘ladi: qaysidir so‘z iste’moldan chiqib ketsa, qaysi bir so‘z semantikasida o‘zgarish sodir bo‘ladi. ayni shu jarayonda so‘z o‘zlashtirish hodisasi amalga oshadi. Negaki, har qanday til qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, biribir o‘z ehtiyojini faqat o‘z so‘zlarini hisobiga qondira olmaydi. Xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar natijasida bir tildan ikkinchi tilga yangi so‘zlar qabul qilinadi. Bu – hozirgi paytda tabiiy jarayon hisoblanadi.” [1, 11]

Xo‘sh, ushbu jarayon qay tarzda amalga oshadi? Uning ilmiy-nazariy asoslari nimalardan iborat? Biz ushbu maqolada so‘z o‘zlashtirish hodisasi, xususan, fransuz tilidan o‘zlashtirilayotgan so‘zlearning imlosi haqida o‘z fikrlarimizni bayon etamiz. Ma’lumki, o‘zbek va fransuz tillari orasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Ayniqsa, XIV asrdan boshlab Amir Temur hukmronligi davrida mazkur aloqalarning kuchayganini qayd etish lozim. O‘sha davrlarda so‘z o‘zlashtirish juda sodda ko‘rinishda bo‘lib, deyarli barcha o‘zlashmalar ona tilimiz tabiatiga muvofiq, ya’ni xalq jonli talaffuziga mos tarzda yozilgan. Binobarin, bunday leksemalarning yozilishida biror orfografik muammo tug‘ilmagan. XX asrdan esa so‘z o‘zlashtirish jarayonida vaziyat o‘zgargan: fransuzcha so‘zlar bevosa fransuz tilining o‘zidan emas,

balki vosita til – rus tili orqali o‘zlashtirila boshlagan. Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinlikni, ayrim fransuzcha so‘zlar turk tili orqali ham kirib kelgan. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanadigan vergul, obuna, tire va sh.k so‘zlar turk tili orqali o‘zlashtirilib, o‘zbeklar nutqiga singib ketgan.

Rus tili orqali o‘zlashtirilganda fransuzcha so‘zlar o‘zbekcha talaffuzda emas, balki rus tilining orfoepik va orfografik qoidalari asosida yoziladi. Masalan, бюджет, сюжет, пляж, комуфляж va sh.k so‘zlar rus tilida qanday yozilsa va qay tarzda aytilsa, o‘zbek kirill alifbosida ham aynan o‘sha shakllar takrorlanadi hamda ruscha talaffuz saqlab qolinadi. Chunki o‘zbek tilining 1940- va 1956- yillarda tasdiqlangan imlo qoidalarila xuddi shu tarzda ko‘rsatib o‘tilgan. Bu holat o‘zbeklar nutqiga unchalik mos kelmasa-da, kirilcha yozuvimizda qulaylik keltirib chiqaradi: fransuz tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar imlosida biror orfografik muammo yuzaga kelmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuvini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni asosidagi alifboda esa [3] rus tili va rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar imlosida bir qator orfografik muammolar paydo bo‘ldi. Bu haqda ilmiy jamoatchilik tomonidan matbuot sahifalarida qator chiqishlar qilingan. Biz keyingi yillarda bu borada bildirilgan fikrmulohazalarni o‘rganib chiqqan holda hamda bugungi lisoniy vaziyatdan kelib chiqib, fransuzcha so‘zlarni o‘zbek lotin alifbosida aks ettirish – transliteratsiya qilish bo‘yicha ayrim tavsiyalarni ilgari surmoqchimiz.

Ma’lumki, fransuz va o‘zbek tillari genetik kelib chiqishi jihatidan bir-biridan uzoq, turli xil til oilalariga mansub tillardir. Shu sababli ham har ikki tilning lug‘aviy tarkibida ular uchun umumiyo bo‘lgan, shakli va ma’nosini bir-biriga mos tushadigan so‘zlar deyarli yo‘q. Biroq kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda talaffuz jihatidan bir-biriga yaqin tovushlar mavjud. Mana shunday turdagil tovushlar sirasiga fransuz tilidagi burun tovushlari: [ã], [ɛ], [œ], [ɔ] ni kiritish mumkin. Mazkur tovushlarning artikulatsiyasi o‘ziga xos bo‘lib, aynan fransuz tilini boshqa tillardan yaqqol ajratib turuvchi asosiy xususiyat deyish mumkin. Ayni paytda mazkur tovushlar fransuz tili leksemalarida juda faol ishtirok etadi, fransuz tili fonetikasining o‘zligini namoyon qiladi.

Shunisi xarakterlikni, mazkur burun tovushlaridan ikkitasi: [ã], [ɔ] ning artikulatsiyasi qaysidir ma’noda o‘zbek tilidagi yagona burun tovushi - [ng] ga qisman mos keladi. Masalan, fransuzcha atoqli ot Mittérant hozirga qadar kirilcha alifbomizda Миттеран shaklida, ya’ni rus tilida qanday yozilsa, o‘zbek tilida ham shu taxlitda yozib kelinadi. Aslida, Mittérant shaklidagi yozuv fransuz tilida [miterã] tarzida talaffuz etiladi, ya’ni oxirgi unli tovush o‘zining asl xususiyatini – burun tovushi ekanini saqlab qoladi. Mazkur so‘zning o‘zbek tiliga kirib kelishidagi vosita til – rus tilida esa burun tovushlari umuman mavjud emas. Shu boisdan ham rus tilida Миттеран shakli mustahkam joy olgan, chunki xorijiy so‘zni qabul qiluvchi til kirib kelayotgan o‘zlashmani o‘z tilining imkoniyatlari doirasida hal qiladi. Bu holat rus tili fonetikasi doirasida hal qilingan, uning mavjud orfoepik va orfografik meyorlariga mos keladi. “Rus tili u yoki bu so‘zni o‘zlashtirayotib, juda kam hollarda uni manba tildagi shaklda o‘zlashtiradi. Rus tili va so‘z kirib kelgan tilning tovush qurilishi, grammatika, semantika va so‘z yasalish xususiyatlaridagi farqlar shunga olib boradiki, o‘zga (begona) so‘z rus tilining fonetik normalari, grammatic qoidalari, so‘z yasalish modellari va semantik qonuniyatlariga moslashib, o‘zgaradi. Sifat yoki fe’l o‘zlashgan holatlarda so‘zga so‘z yasalish jihatdan ishlov berish mutlaqo zarur bo‘ladi. Nemischa marschieren, fransuzcha naïf kabi so‘zlar ruscha fe’l va sifatlar uchun xarakterli bo‘lgan: -овать va – ний affikslariga ega bo‘lib, (маршировать, наивний va h.k.) rus tilining faktiga aylanadi.” [2, 103]

Agar keltirilgan havoladagi fikrlar inobatga olinsa, fransuzcha atoqli ot - Mittérant ni ham o‘zbek tili fonetikasi qonuniyatlarini asosida, ya’ni jonli talaffuzga muvofiq tarzda

lotincha alifbomizda Mitterang shaklida berish mumkin bo‘ladi. Xo‘sh, mazkur orfogramma - Mitterang shaklining o‘zbek adabiy tili uchun qanday afzalligi yoxud ustunligi bor? Nazarimizda, bu o‘rinda bir qator ustunliklar mavjud. Avvalo, manba til – fransuz tili va o‘zlashtirayotgan til – o‘zbek tilidagi orfogrammalar ma’lum bir shakliy o‘xhashlikka ega bo‘ladi: Mittérant – Mitterang. Ikkinchidan, fransuzcha o‘zlashmadagi burun tovushi - [ã] o‘ziga talaffuz jihatdan ancha yaqin bo‘lgan tovushlar - [ang] bilan almashadi. Uchinchidan, bu holat o‘zbek lotin alifbosining grafik imkoniyatlari ancha kengligidan darak beradi. To‘rtinchidan, lotincha alifbomizning milliy xarakteri yaqqol namoyon bo‘ladi - xalq jonli talaffuziga yaqin shakl yuzaga keladi. Va nihoyat, vosita til – rus tiliga qaramlikdan qutulib, orfografik jihatdan to‘g‘ri yozilgan bir orfogrammaga ega bo‘lamiz.

Ayni shunday holatni boshqa so‘zlar misolida ham kuzatish mumkin. Masalan, fransuzcha toponimlardan biri – Champagne [ʃampn] ham hozirga qadar vosita til orqali kirib kelgani bois Shampyan tarzida yoziladi. Chunki mazkur toponim rus tilida burun tovushlarining mavjud emasligi tufayli Шампань ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Ayni paytda manba tilning manfaati emas, balki o‘zlashtirayotgan til – rus tilining manfaati: talaffuzdagi qulaylik hisobga olinib, uning fonetik qonuniyatlariga bo‘ysundirilgan. Binobarin, Champagne so‘zida ikki o‘rinda keladigan burun tovushi - [ã] fonemasi [a] ga o‘zgartirilib, so‘zning oxiridagi [н] tovushi yumshoqroq tarzda [нь] tarzida aytildigan bo‘lgan. Shuning natijasida ushbu so‘z rus tilida faol qo‘llanadigan so‘zlar qatoridan joy olgan. Hatto uning asosida шампанское so‘zi ham paydo bo‘lgan. Agar masalaga ilmiy-nazariy jihatdan to‘g‘ri yondashilsa, ushbu toponimni biz ham Champange shaklida yozishimiz mumkin. Negaki, ayni shu shaklda, ya’ni [шампанг] tarzidagi talaffuz yuzaga keladi. Bu esa manba til – fransuz tili va o‘zlashtirayotgan til – o‘zbek tili fonemalari orasidagi o‘xhashlikni namoyon qiladi, talaffuzda qulaylik keltirib chiqaradi hamda mazkur leksemaning o‘zbeklar nutqiga singib ketishiga ko‘maklashadi.

Tekshirishlardan ma’lum bo‘ladiki, fransuzcha antropomin va toponimlarning aksariyatini yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan usulda o‘girish imkonи bor. Bunda ularni transliteratsiya yoki transkripsiya qilishning o‘ziga xosligiga jiddiy e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Masalan, hozirga qadar Орлеан, Андалузия, Безансон, Бретань shaklida yozib kelinayotgan leksemalarning shaklini ham o‘ylab ko‘rish vaqtি yetilgan. Chunki mazkur leksemalar manba tilda Orléans, Andalousie, Besançon, Bretagne shakllarida yoziladi. Ko‘rinadiki, ularning barchasida burun tovushlari ishtirot etgan. Nazarimizda, ushbu leksemalarning rus tilida Орлеан, Андалузия, Безансон, Бретань shaklida yozilishi o‘zini to‘liq oqlaydi. Chunki bunda rus tilining fonetik xususiyatlari hisobga olinib, to‘g‘ri orfogrammalar tavsiya qilingan. Ayni shu holatlarni hisobga olgan holda yuqorida ko‘rsatilgan fransuzcha toponimlarni o‘zbek lotin alifbosida Orleang, Angdaluz, Bezangsong, Bretang shakllarida yozish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, hozirgi lisoniy vaziyat: siyosiy va madaniy aloqalar natijasida so‘z o‘zlashtirish hodisasining kuchayib borishi, vosita til orqali emas, balki manba tillardan so‘zlarni bevosita o‘zlashtirish imkoniyati ayrim o‘zlashmalarning o‘zbek lotin alifbosidagi imlosini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Buni biz yuqorida ko‘rib chiqqan holat – ba’zi fransuzcha toponim va antropominlarning kirilcha aifboda yozilishi va o‘zbek lotin yozuvida aks ettirish imkoniyatlari yaqqol ko‘rsatib turadi. Nazarimizda, bunday leksemalarning manba tildagi yozilishi va talaffuzini puxta o‘rgangan holda ularni o‘zbek lotin alifbosida ona tilimiz manfaati nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish, ilmiy-nazariy asoslangan orfogrammalarni tavsiya etish bugungi o‘zbek tilshunosligi oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar:**

1. Jomonov R. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish va imlo muammolari. T.: O‘zbekiston, 2013.
2. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – М.: Просвещение, 1972.
3. Ona tili – davlat tili. –T.: Adolat, 2004.